

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XALIQULOV KOMOLIDDIN NOSIROVICH

**XORIJIY DAVLATLAR SUD QARORLARINI TAN OLIH VA IJRO
ETISH BO‘YICHA XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIK**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Xaliqulov Komoliddin Nosirovich

Xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik.....3

Halikulov Komoliddin Nosirovich

International legal cooperation in the recognition and enforcement of judicial decisions of foreign states25

Халикулов Комолиддин Носирович

Международно-правовое сотрудничество по признанию и исполнению судебных решений иностранных государств.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 52

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XALIQULOV KOMOLIDDIN NOSIROVICH

**XORIJIY DAVLATLAR SUD QARORLARINI TAN OLIH VA IJRO
ETISH BO‘YICHA XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIK**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Yu1583 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan-avtoreferatlar>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Sulaymanov Odiljon Rabbimovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Gafurova Nozimaxon Eldarovna
yuridik fanlar doktori, dotsent

Hakimov Ravshan Tulkunovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/03.06.2023 Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 29-sentyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: +998 71 233-66-36 faks: +998 71 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1424 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13. Tel.: +998 71 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" sentyabr kuni tarqatildi

(2025-yil "15" sentyabr 11-raqamli reestr bayonnomasi)



S.S.Gulyamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

Sh.N.Raxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar doktori, dotsent

D.N.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda, globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bilan bogʻliq davlatlararo munosabatlar yildan yilga dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, 2024-yil 24-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan “Kelajak uchun pakt”ning 7-harakatida “Barqaror taraqqiyot yoʻlida tinchliksevar, adolatli va ochiq jamiyatlarni barpo etish, barcha uchun odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini taʼminlash, barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirok etishga asoslangan muassasalarni yaratish, shuningdek, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish borasidagi saʼy-harakatlarimizni kuchaytiramiz”¹ deb qayd etilgan. Bunga, turli davlatlarning jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy ishlar boʻyicha sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarini tan olish va ijro etishda huquqiy mexanizmlarning zaifligi va davlatlarning milliy huquqiy tizimlarining xilma-xilligi kabi qator muammolar ham sabab boʻlmoqda. Bu esa, xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish borasida xalqaro shartnomalarni takomillashtirish va ularni davlatlarning milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish hamda bu boradagi xalqaro-huquqiy hamkorlikni kuchaytirishni taqozo qiladi.

Jahonda xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish boʻyicha xalqaro-huquqiy shartnomalarni takomillashtirish, turli davlatlarning milliy huquqiy tizimlaridagi tafovutlar bilan bogʻliq muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni oʻrganish hamda mazkur sohani tartibga soluvchi mexanizmlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida eʼtibor berilmoqda. Jumladan, xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etishda davlatlar oʻrtasidagi muammolarga sabab boʻluvchi omillarni qayta koʻrib chiqish, ilgʻor xorijiy davlatlar tajribasi asosida xalqaro-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan, xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish boʻyicha xalqaro shartnomalarda qayd etilgan normalarning bugungi kun talablariga javob bermasligi, davlatlar oʻrtasidagi munosabatlarda oʻzaro ishonchning yetarli emasligi, shuningdek, davlatlarning milliy qonunchiligidagi farqlar kabi qator muammolar nazariy, amaliy, huquqiy masalalarni kompleks tarzda oʻrganish, tizimdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularga yechim berish masalasini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish sohasidagi munosabatlarni samarali amalga oshirish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan bir qator xalqaro hujjatlarning ratifikatsiya qilindi, bu esa xorijiy davlatlarning jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etish boʻyicha xalqaro huquqiy-hamkorlikni amalga oshirishda, xalqaro shartnomalarda belgilangan normalarni bir xilda qoʻllash hamda sud qarorlarining huquqiy himoya mexanizmini mustahkamlashga xizmat qilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev taʼbiri bilan aytganda: “Sudlarning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirishdan iborat. Buning uchun sud har

¹ Resolution A/RES/79/1 adopted by the General Assembly on 22 September 2024 The Pact for the Future // [Elektron resurs]: <https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n24/272/22/pdf/n2427222.pdf>

bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishi lozim.”¹ Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-noyabrdagi “1993-yil 22-yanvardagi Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Konvensiya va 2002-yil 7-oktabrdagi Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Konvensiya qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4895-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosidan kelib chiqib, sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha davlatlar hamkorligini tartibga soluvchi universal, mintaqaviy va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarning tavsifini, davlatlararo hamkorlikni tartibga solish asoslari hamda ularning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikka oid shartnomalardagi normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalarini tatbiq etishni taqozo etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti BMTning 1988-yil 20-dekabrdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyasi, 2000-yil 15-noyabrdagi “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi” konvensiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2020-yil 17-noyabrdagi PQ-4895-son “1993-yil 22-yanvardagi Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Konvensiya va 2002-yil 7-oktabrdagi Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik masalalari, shuningdek xalqaro huquq normalarining sudlar tomonidan qo‘llanilishi, ularni milliy qonunchilikka tatbiq etilishi va tartibga solinishi hamda odil sudlovni amalga oshirish bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikning ayrim jihatlarini mamlakatimiz huquqshunos olimlari – A.Saidov, I.Rustambekov, G.Yuldasheva, X.Tursunov, O.Sulaymanov, D.Umarxanova, D.Egamberdiyev, O.Saidov, F.Fayziyev, A.Mansurov, J.Allayorov, A.Suleymanova, Sh.Jo‘ldasova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Shu bilan birga, mavzuga oid masalalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar doirasida, xususan, X.Tursunovning nomzodlik dissertatsiyasida O‘zbekiston Respublikasi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22.12.2017 y. // [Elektron resurs]: <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

sudlarida xalqaro huquq normalarini qo'llashning amaliy jihatlari o'rganilgan.

D.Umarxonova o'zining doktorlik dissertatsiyasida jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik masalalarining bir yo'nalishi sifatida ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning jazo o'tash jarayonini davom ettirishda xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish bilan bog'liq bo'lgan xalqaro huquq normalarining milliy-huquqiy tizimga implementatsiya qilish masalalariga to'xtalib o'tgan.

O.Saidov esa, tadqiqot ishida, mahkumni topshirish institutini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy masalalari doirasida xorijiy davlat sud hukmini tan olishga to'xtalib o'tgan.

MDH davlatlari doirasida T.Xabriyeva, L.Lunts, I.Engelman, N.Marisheva, P.Yevseyev, D.Averin, M.Boguslavskiy, V.Trexov, M.Aminov, S.Sorokina, A.Urusov, O.Panyushkina, M.Pelenitsina, A.Novoselsev, D.Kulikova, A.Shukin, A.Muranov, T.Yablochkov, L.Anufrieva va boshqa olimlar tomonidan xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish tushunchalari hamda ularning xalqaro-huquqiy hamkorlik bilan bog'liqligi masalalari o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan P.Barnett, J.Hill, R.Brand, G.Born, P.Herzog, H.Batiffol, I.Blunchli, K.Lenarts, Albert Yan van den Berg, S.Tesfay, D.Jitta, K.Kessedjian, X.Shak, M.Volf, Nadia de Araujo, Marcelo De Nardi, E.Lussen-Petraska, P.Mayer va boshqa olimlar¹ o'z tadqiqotlari doirasida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishda davlatlararo munosabatlarni huquqiy tartibga solish zaruratiga e'tibor qaratganlar.

Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlari faqat davlatlar o'rtasida jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordamni amalga oshirishda xalqaro huquqiy-hamkorlikning ayrim amaliy va nazariy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik masalalari yuzasidan keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shunga ko'ra, ushbu masalani kompleks tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Bu esa, xalqaro huquq fani nuqtai nazaridan bu sohadagi xalqaro shartnomalarga rioya qilinishini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirish ehtiyoji mavjudligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik masalalarini tadqiq etish, bu sohadagi mavjud muammo va huquqiy bo'shliqlarni aniqlash, shuningdek xalqaro-huquqiy hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish tushunchasi va uning mazmunini tahlil qilish;

sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro munosabatlarning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

davlatlar o'rtasida sud qarorlarini tan olish va ijro etishni tartibga soluvchi prinsiplarning xususiyatlarini tadqiq etish;

sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha universal xalqaro shartnomalarni

¹ Mazkur olimlarning ishlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

tahlil qilish;

mintaqaviy shartnomalar doirasida sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha davlatlararo hamkorlik masalalarini tadqiq qilish;

davlatlar o'rtasida ikki tomonlama shartnomalar doirasida sud qarorlarini tan olish va ijro etish masalalarining huquqiy tartibga solishni o'rganish;

xorijiy davlatlarning jinoiy, fuqarolik va iqtisodiy sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro hamkorlikka oid normalarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro shartnomalar normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha amaliy va ilmiy-nazariy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha yuzaga keladigan xalqaro-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikni tartibga solishga oid bo'lgan xalqaro-huquqiy hujjatlar, milliy va xorijiy normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik (mavzu doirasida so'rovnoma), induksiya, deduksiya, yuridik-texnik, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etishga oid xalqaro shartnomalarda belgilangan normalarni milliy sudlar tomonidan bir xilda qo'llash bo'yicha huquqiy mexanizmni takomillashtirishni taqozo etayotganligi sababli, xorijiy davlatda ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoga hukm qilingan va jazoni o'tayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi jazoni O'zbekiston Respublikasida o'tashni davom ettirish uchun qabul qilib olinganda, xorijiy davlat sudining qarori O'zbekiston Respublikasida tan olinishi va ijroga qaratilishi mumkinligi asoslantirilgan;

jazoni o'tashni davom ettirish uchun O'zbekiston Respublikasi sudi tomonidan ozodlikdan mahrum etilgan chet el fuqarosi o'zi fuqaroligiga mansub bo'lgan davlatga berilishi yoki xorijiy davlat sudi tomonidan ozodlikdan mahrum etilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi xorijiy davlatdan qabul qilib olinishi mumkinligi asoslantirilgan;

jazoni o'tash uchun xalqaro shartnomalarga muvofiq xorijiy davlat tomonidan topshirilgan mahkumga nisbatan jazo muddati xorijiy davlat sudining hukmi bilan tayinlangan muddatga mutanosib ravishda hisoblanishi kerakligi asoslantirilgan;

xorijiy davlat sudining qarorini tan olish va ijroga qaratish O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga, suverenitetiga yoki xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkinligi haqida xulosaga kelsa, xorijiy davlat sudining qarorini tan olishni va ijroga qaratishni rad etish to'g'risida ajrim chiqarishi kerakligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xorijiy davlatlar sud qarorlarini ijro etish sohasidagi xalqaro huquqiy-

hamkorlikni yanada takomillashtirish maqsadida BMTning bir qator “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi”, “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyalar doirasida BMTning namunaviy shartnomasini qabul qilish kerakligi asoslangan;

BMTning transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro shartnomalari doirasida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikni amalga oshirish jarayonida davlatlarning milliy manfaatlari, xususan tarixiy va madaniy meros bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda rad etish asoslari sifatida inobatga olinishi lozimligi asoslangan;

MDH doirasida huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi Minsk va Kishinev konvensiyalariga xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishning soddalashtirilgan tartibini kiritish zarurligi asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi ushbu sohada faqatgina MDH doirasida qabul qilingan mintaqaviy xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi ekanligi, ammo ushbu shartnomalar yopiq xususiyatga ega ekanligidan kelib chiqib “Fuqarolik va tijorat ishlari bo‘yicha chiqarilgan xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risida”gi 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan Gaaga konvensiyasiga qo‘shilishi lozimligi asoslangan;

ko‘p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda belgilangan majburiyatlarni samarali bajarilishini ta‘minlash maqsadida axborot almashinuvi bo‘yicha elektron tizimlarni joriy etish lozimligi asoslangan;

xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar: jarima, jinoiy yo‘l bilan olingan daromad yoki mol-mulkni musodara qilish yuzasidan chiqarilgan xorijiy davlat jinoyat sudi hukmlarini tan olish va ijro etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Bolalarni boshqa mamlakatlarga o‘g‘irlab olib ketishning fuqarolik jihatlari to‘g‘risida”gi Gaaga konvensiyasining ishtirokchisi ekanligini inobatga olgan holda, bolalar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq holatlar yuzasidan xorijiy davlat sudlarining qarorlarini tan olish va ijro etishning soddalashtirilgan tartibini milliy qonunchilikka joriy etish bo‘yicha takliflar asoslangan;

xorijiy davlatning vakolatli sudlari tomonidan chiqarilgan, tan olish orqali ijro etilmaydigan sud qaror (hukm)larni tartibga solish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat va Fuqarolik protsessual kodekslariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti, statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilgan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan hamda xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalardan ilmiy-tadqiqot faoliyatida, shuningdek, “Xalqaro ommaviy huquq”, “Xalqaro jinoyat huquqi”, “Jinoyat protsessual huquqi”, “Fuqarolik protsessual huquqi”, “Iqtisodiy protsessual huquqi” kabi o‘quv fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda hamda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlashda, milliy qonunchilikni

takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy ishalar bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik oid bo'lgan qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik bo'yicha olib borilgan ilmiy natijalar asosida:

xorijiy davlatda ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoga hukm qilingan va jazoni o'tayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi – jazoni O'zbekiston Respublikasida o'tashni davom ettirish uchun qabul qilib olinganda xorijiy davlat sudining qarori O'zbekiston Respublikasida tan olinishi va ijroga qaratilishi mumkinligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1009-son Qonunning 1-moddasi 3-bandi (Jinoyat-protsessual kodeksining 610-modda birinchi qism 1-bandi)ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 14-maydagi 9/dn-100-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi fuqaroning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida xorijiy davlat sudi hukmi bilan tayinlangan jazoning qolgan qismini O'zbekiston Respublikasida davom ettirish uchun huquqiy asos yaratilishiga xizmat qilgan;

jazoni o'tashni davom ettirish uchun – O'zbekiston Respublikasi sudi tomonidan ozodlikdan mahrum etilgan chet el fuqarosi o'zi fuqaroligiga mansub bo'lgan davlatga berilishi yoki xorijiy davlat sudi tomonidan ozodlikdan mahrum etilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi xorijiy davlatdan qabul qilib olinishi mumkinligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi 2024-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1009-son Qonunning 1-moddasi 3-bandi (Jinoyat-protsessual kodeksining 611-modda birinchi qism 1-bandi)ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 14-maydagi 9/dn-100-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi jismoniy shaxslarga nisbatan xorijiy davlat sudi hukmi bilan tayinlangan jazoning o'z vatanida davom ettirishining qonuniy mexanizmini yaratishga xizmat qilgan;

jazoni o'tash uchun xalqaro shartnomalarga muvofiq xorijiy davlat tomonidan topshirilgan mahkumga nisbatan jazo muddati xorijiy davlat sudining hukmi bilan tayinlangan muddatga mutanosib ravishda hisoblanishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi 2024-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1009-son Qonunning 1-moddasi 3-bandi (Jinoyat-protsessual kodeksining 614-modda birinchi qism)ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 14-maydagi 9/dn-100-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi xalqaro shartnomalar asosida xorijiy davlatdan O'zbekistonga topshirilgan mahkumga nisbatan xorijiy davlat sudi tomonidan chiqarilgan hukm

(qaror)ni tan olish va ijro etish jarayonida jazoning adolatli va odil sudlov prinsiplariga muvofiq tarzda davom ettirilishini ta'minlashga qaratilgan zarur huquqiy asoslarni shakllantirishga xizmat qilgan;

xorijiy davlat sudining qarorini tan olish va ijroga qaratish O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga, suverenitetiga yoki xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkinligi haqida xulosaga kelsa, xorijiy davlat sudining qarorini tan olishni va ijroga qaratishni rad etish to'g'risida ajrim chiqarishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi 2024-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1009-son Qonunning 1-moddasi 3-bandi (Jinoyat-protsessual kodeksining 615-modda ikkinchi qism 3-bandi)ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 14-maydagi 9/dn-100-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi jinoyat ishlari bo'yicha xorijiy davlat sudi tomonidan chiqarilgan hukm(qaror)ni tan olish va ijro etishda O'zbekiston Respublikasining o'z milliy manfaatlarini himoya qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (3 ta xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'qqizta paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning hajmi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "**Xalqaro huquqda xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishning nazariy va huquqiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish tushunchasi, sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro huquqiy-hamkorlikning shakllanishi va rivojlanishi hamda davlatlar o'rtasidagi sud qarorlarini tan olish va ijro etishni tartibga soluvchi prinsiplarning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Xususan, "*Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish tushunchasi*" deb nomlangan birinchi paragrafda "tan olish" va "ijro etish" tushunchalarining mohiyati, xususiyatlari va o'zaro munosabatlari tahlil qilingan. Muallif ilmiy

adabiyotlar va xorijiy olimlarning yondashuvlarini tahlil qilib, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bilan bog‘liq asosiy nazariy konsepsiyalarni ochib beradi.

Dissertantning ta’kidlashicha, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish sud hokimiyati tomonidan chiqarilgan qaror yakuniy va yuridik xususiyatga ega bo‘lgan hujjat sifatida davlatning boshqa organlari tomonidan so‘zsiz tan olinishi hamda to‘liq ijro etilishi qonun ustuvorligining muhim sharti hisoblanadi.

Muallif xorijiy davlat sud qarorini tan olish va ijro etish tushunchasiga oid bir qator muhim yondashuvlarni tahlil qiladi. L.Luntsning fikricha, xorijiy davlat sud qarorini “tan olish” unga eksklyuzivlik xususiyatini berishdan iborat. L.Anufriyeva xorijiy davlat sudining qarorini tan olish uni ijro etishning zaruriy sharti ekanligini, xorijiy davlat sud qarorini “tan olish” va “ijro etish” juda yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, lekin ular bir-biridan huquqiy tomondan farq qilishini ta’kidlagan. Dissertant P.Barnett, L.Lunts, X.Tursunov, F.Matcher, L.Anufrievaning fikrlariga qisman qo‘shilgan holda, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak: sud qarori chiqarilgan davlat hududida qonuniy kuchga kirgan va yuridik xususiyatga ega bo‘lgan hujjat. Ushbu qaror chiqarilgan davlat hududidan tashqarida huquqiy oqibatlarga olib kelishi hamda tan oluvchi davlat qonunchiligiga asosan ijro etilishi kerakligini ta’kidlaydi. Shuningdek, tadqiqotchi jahon amaliyotida sud qarorlarni tan olish va ijro etish xususiyatiga ko‘ra, quyidagicha turlarga bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi: birinchidan, sud qarori ijro etilishi talab qilinmasdan tan olinishi; ikkinchidan, sud qarori tan olinishi orqali ijro etilishi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro hamkorlikning shakllanishi va rivojlanishi”* deb nomlanib, unda xalqaro huquqiy-hamkorlikning tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan.

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, davlatlararo munosabatlarda xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro huquqiy-hamkorlikning rivojlanishi bir necha tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich (XVI-XVII asrlar) Yevropa mamlakatlarida transchegaraviy munosabatlarning rivojlana boshlashi natijasida xalqaro munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish zaruratini yuzaga keltirdi. U.Guber davlatlarning suverenitetiga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsa, G.Grotsiy, davlatlar va xalqlar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlar xalqaro huquq orqali tartibga solinishi lozimligini ta’kidlab o‘tgan. Ikkinchi bosqichda (XVII asrdan to XX asr boshlarigacha) anglo-sakson huquq oilalarida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro xushmuomalalik (comitas gentium) prinsipi doirasida rivojlanib borgan. Davlatlar o‘rtasida xalqaro munosabatlar rivojlanishi natijasida, fuqarolik-huquqiy munosabatlarga oid ishlar bo‘yicha chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etish zaruratini yuzaga keltirdi. Uchinchi bosqichda (XX asr o‘rtalaridan hozirgi kungacha) zamonaviy xalqaro huquqning rivojlanishi va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan imperativ normalarning tan olinishi, shuningdek, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishda davlatlar o‘rtasida xalqaro huquqiy-hamkorlikni amalga oshirish bo‘yicha milliy qonunchilik normalarini uyg‘unlashtirish maqsadida bir qator ko‘p tomonlama shartnomalar qabul qilindi.

Dissertant xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishning xalqaro huquqiy-hamkorlik bosqichlarini alohida tahlil qilib, bu borada milliy sud-huquq

tizimlarining uyg'unlashuviga xalqaro shartnomalarning ta'siri masalasini ochib beradi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi *"Davlatlar o'rtasidagi sud qarorlarini tan olish va ijro etishni tartibga soluvchi prinsiplarning o'ziga xos jihatlari"* deb nomlanib, unda xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishda qo'llaniladigan xalqaro huquq prinsiplari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishni tartibga soluvchi prinsiplarni bir necha guruhlariga bo'lib o'rganadi: imperativ (davlatlarning suveren tengligi prinsipi va davlatlarning xalqaro hamkorligi prinsiplari); sohaviy (sud jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va res judicata); ixtiyoriylik (o'zarolik prinsipi).

Davlatlarning suveren tengligi prinsipi nuqtai nazaridan, muallif davlatlarning o'z suverenitetini saqlash va boshqa davlatlarning huquq tizimlariga hurmat ko'rsatish masalalarini tahlil qiladi. Xalqaro hamkorlik prinsipi doirasida, davlatlarning o'zaro huquqiy yordamni amalga oshirishdagi majburiyatlarini ko'rib chiqadi.

Alohida e'tibor o'zarolik prinsipiga qaratilgan. Muallif o'zarolik prinsipini qo'llashda dunyodagi huquq oilalarida quyidagicha farqlanishini ta'kidlaydi: 1) Anglo-sakson huquq oilasida, xorijiy davlat sud qarorlari tan olish va ijro etish bo'yicha odil sudlovni ta'minlaydigan huquqiy tizimga amal qilgan hollarda o'zarolik prinsipi qo'llaniladi; 2) roman-german huquq oilasida, xorijiy davlat sud qarorlari tan olish va ijro etishda davlatlar o'rtasida o'zarolik prinsipi, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi ma'lum bir shartnomalar bo'lmaganda qo'llanilishiga urg'u berilgan bo'lsa-da, ammo o'zarolik prinsipini shartnomaning bir elementi bo'lmish yozma shaklda rasmiylashtirishini talab qiladi.

Shuningdek, muallif "res judicata" prinsipining mohiyatini ochib berib, bu prinsip sud qarorlarining yakuniyligini kafolatlashi va bir xil asosga ega bo'lgan da'vo bo'yicha ikki marta sudga tortilmasligini ta'minlashini ta'kidlaydi.

Dissertatsiyaning **"Xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari"** deb nomlangan ikkinchi bobida sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha davlatlar hamkorligini tartibga soluvchi universal xalqaro shartnomalar tavsifi, mintaqaviy shartnomalar doirasida davlatlararo hamkorlikni tartibga solish asoslari hamda ikki tomonlama shartnomalarning o'ziga xosligi tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *"Sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha davlatlar hamkorligini tartibga soluvchi universal xalqaro shartnomalar tavsifi"* deb nomlanib, unda xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha universal xalqaro shartnomalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi universal darajada xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish asoslarini tahlil qilar ekan, ularni predmetiga ko'ra jinoiy, fuqarolik hamda iqtisodiy ishlar bo'yicha munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan hujjatlarga ajratadi.

Jinoiy ishlar bo'yicha universal shartnomalar doirasida, muallif BMTning "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiyasi, "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi" konvensiyasi va "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiyasini tahlil qiladi. Bu konvensiyalarda jinoiy faoliyat

natijasida olingan mol-mulknı musodara qilish bo'yicha xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmlari o'rganiladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha universal shartnomalar doirasida, "Bolalarni boshqa mamlakatlarga o'g'irlab olib ketishning fuqarolik jihatlari to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasining alohida ahamiyati ko'rsatib berilgan. Mazkur konvensiya xorijiy davlatga noqonuniy olib ketilgan yoki ushlab turilgan bolalarni doimiy yashash joyiga qaytarish bo'yicha xalqaro huquqiy mexanizmni yaratishga qaratilgan.

Iqtisodiy ishlar bo'yicha universal shartnomalar sifatida, BMTning 1958-yil 10-iyunda qabul qilingan "Chet el arbitrajları qarorlarini tan olish va ijroga qaratish" to'g'risidagi Nyu-York konvensiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, "Fuqarolik va tijorat ishlari bo'yicha chiqarilgan xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlar ham muallif tomonidan o'rganilgan.

Paragraf so'nggida muallif universal xalqaro shartnomalarning xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha hamkorlikning huquqiy asosi sifatidagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi "*Mintaqaviy shartnomalar doirasida sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha davlatlar hamkorligini tartibga solish asoslari*" deb nomlanib, unda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari o'rtasidagi mintaqaviy shartnomalar doirasida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari tahlil qilingan.

Dissertant mintaqaviy shartnomalarni uch yo'nalishda tahlil qiladi: jinoiy, iqtisodiy va fuqarolik ishlari bo'yicha.

Jinoiy ishlar bo'yicha muallif 1993-yil 22-yanvardagi Minsk konvensiyasi va 2002-yil 7-oktyabrdagi Kishinev konvensiyasini tahlil qiladi. Ushbu konvensiyalarda xorijiy davlat sud qaror (hukm)larini tan olish va ijro etish mexanizmlari yoritib berilgan. Dissertant Kishinev konvensiyasining 109-moddasiga asosan, "agar shaxs jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun topshirilmagan bo'lsa, ishtirokchi davlat sudi tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan oladi va ijro etadi," degan normalarni tahlil qiladi. Shuningdek, 1998-yil 6-martda qabul qilingan "Ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarni jazoni o'tash uchun topshirish to'g'risida"gi konvensiya doirasida mahkumlarni o'z davlatiga jazoni o'tash uchun topshirish masalalari o'rganilgan.

Iqtisodiy ishlar bo'yicha 1992-yilda qabul qilingan "Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarni hal qilish tartibi to'g'risida"gi Kiyev bitimi asosiy mintaqaviy hujjat sifatida tahlil qilingan. Muallif Kiyev bitimining 7-moddasida belgilangan, iqtisodiy ishlar bo'yicha sud qarorlarini tan olish va ijro etish asoslarini batafsil o'rganadi. Shuningdek, Kishinev konvensiyasi doirasida mazkur masalani tartibga soluvchi mezonlarni tahlil qiladi.

Fuqarolik ishlar bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalarda Minsk va Kishinev konvensiyalari doirasida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari tahlil qilingan. Muallif ushbu konvensiyalarda belgilangan tan olish va ijro etish tartibi, mezonlari va rad etish asoslarini o'rganadi.

Mintaqaviy shartnomalar tahlili natijasida, dissertant xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmlarining ustuvor jihatlari va kamchiliklarini aniqlaydi. Yevropa Ittifoqi tajribasidan kelib chiqib, "Yevropa sudlar tarmog'i" kabi hamkorlik mexanizmlarini tahlil qiladi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi “*Sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining ikki tomonlama shartnomalarning o‘ziga xosligi*” deb nomlanib, unda O‘zbekiston Respublikasining turli davlatlar bilan tuzgan ikki tomonlama shartnomalarida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi O‘zbekiston Respublikasi tuzgan ikki tomonlama shartnomalarni uch yo‘nalishda tahlil qiladi: jinoiy, iqtisodiy va fuqarolik ishlar bo‘yicha.

Jinoiy ishlar bo‘yicha xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish tartibi ikki turdagi shartnomalar doirasida o‘rganilgan: 1) Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni o‘tashni davom ettirishni tartibga soluvchi shartnomalar; 2) Huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi shartnomalar.

Fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo‘yicha xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishni tartibga soluvchi normalar O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Gruziya, Latviya, Litva, Turkiya va Chexiya davlatlari bilan tuzgan shartnomalari tahlil qilingan. Shu bilan birga ushbu shartnomalarning umumiy va farqli jihatlari, jumladan yo‘nalishiga ko‘ra (aniq yo‘nalish yoki keng qamrovli), rad etish asoslari va tan olish tartibi kabi masalalar bo‘yicha qiyosiy-huquqiy tahlil o‘tkazilgan.

Dissertatsiyaning “**Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikka oid shartnomalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari**” deb nomlangan uchinchi bobida jinoiy, fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo‘yicha xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha ushbu shartnomalarda belgilangan normalarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalari tahlil qilingan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafi “*Jinoiy ishlari bo‘yicha xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikka oid shartnomalarni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish*” deb nomlanib, unda jinoiy ishlar bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik normalarining milliy qonunchilikda aks etishi tahlil qilingan.

Dissertant xalqaro shartnomalarda belgilangan normalarning milliy qonunchilikka implementatsiyasini tahlil qilib, O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida jinoiy ishlari bo‘yicha xorijiy davlat sud hukmlarini tan olish va ijro etish bosqichlari va tartibini ochib beradi.

Muallif jinoiy ishlari bo‘yicha xorijiy davlat sudining hukmni (qaror) tan olish va ijro etishni amalga oshirish 4 bosqichdan iborat ekanligini aniqlagan. Shuningdek, jinoyat sudlari tomonidan xorijiy davlat qonunchiligi asosida hukm(qaror)da tayinlangan jazoning milliy qonunchilik normalariga mutanosibligini va xalqaro shartnomalarda belgilangan shartlarga rioya etilganligini tekshirilishi ta’kidlanadi.

Tadqiqotchi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida xorijiy davlat sud hukm(qaror)larini tan olish va ijro etishni tartibga soluvchi me’yorlarni kengaytirish lozimligini, xususan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar, jarima, jinoiy yo‘l bilan olingan daromad yoki mol-mulkni musodara qilish bo‘yicha normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zaruratini ta’kidlaydi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Fuqarolik munosabatlarga oid xorijiy*

davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikka oid shartnomalarni O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida tartibga solinishi" deb nomlanib, unda fuqarolik ishlari bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik normalarining milliy qonunchilikda aks etishi tahlil qilingan.

Dissertant O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida, "O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi" deyilgan hamda Fuqarolik kodeksining 1158-moddasi, 1-qismida, chet el elementi ishtirok etgan munosabatlarni xalqaro shartnomalar va e'tirof etilgan xalqaro taomillar asosida tartibga solish belgilanganligi xalqaro-huquqiy hamkorlik uchun muhim huquqiy asos bo'lishini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik ishlari bo'yicha xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish xalqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi tan olish orqali ijro etish xususiyatiga ega bo'lgan 3 turdagi qaror(hal qiluv)lari bo'yicha xalqaro huquqiy-hamkorlikni amalga oshiradi. Ushbu turdagi qarorlarning belgisi sifatida, sud muhokamasi o'tkazilgandan so'ng qabul qilinganligi ta'kidlanadi.

Muallif O'zbekiston Respublikasi bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquqiy-hamkorlikni tahlil qilib, "Bolalarni boshqa mamlakatlarga o'g'irlab olib ketishning fuqarolik jihatlari to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasi ishtirokchisi bo'lsa-da, noqonuniy olib ketilgan yoki ushlab turilgan bolalarni o'z vatanlariga qaytarish bo'yicha maxsus tartib-tamoillar o'tkazmasdan xorijiy davlat sudi qarorlarini tan olish va ijro etishga oid normalar milliy qonunchilikda belgilanmaganligini aniqlaydi.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi "*Iqtisodiy ishlari bo'yicha xorijiy davlatlar sudlarining qarorlarini tan olish va ijro etish doirasida xalqaro huquqiy hamkorlik shartnomalarini O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi bilan uyg'unlashtirish*" deb nomlanib, unda iqtisodiy ishlar bo'yicha xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishga oid bo'lgan xalqaro-huquqiy hamkorlik normalarining milliy qonunchilikda aks etishi tahlil qilingan.

Dissertant O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy ishlar bo'yicha xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmlarini tahlil qilib, xalqaro shartnomalarda va milliy qonunchilikda belgilangan normalarning amaliy qo'llanilishi masalalarini o'rganadi.

Muallif O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (IPK)ning 248-modda 1-bandida iqtisodiyot nizolar bo'yicha xorijiy davlat sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bo'yicha tegishli xalqaro shartnomalar mavjud bo'lgan taqdirda milliy qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi belgilanganligini ta'kidlab, ushbu normalar xalqaro shartnomalarga ustuvorlik berganligini aniqlaydi.

Tadqiqotchining fikricha, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy protsessual qonunchiligidan, kelib chiqadigan bo'lsak, xorijiy davlat sudi yoki arbitraj qarorini tan olish bo'yicha taqdim qilingan iltimosnomaga muvofiq ochiq sud majlisida 6 oy ichida ko'rib chiqiladi. Xususan, fuqarolik va jinoiy ishlardan farqli jihati sifatida, iqtisodiy ishlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari (ikkinchi intansiya) tomonidan ko'rib chiqilishini ta'kidlaydi.

Dissertant O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi “Chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni iqtisodiy sudlar tomonidan ko‘rishda qonunchilik hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 27-sonli qarorini tahlil qilib, iqtisodiy ishlar bo‘yicha xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishda bir xil sud amaliyotini shakllantirish masalasini o‘rganadi.

Tadqiqotchi iqtisodiy ishlar bo‘yicha xalqaro huquqiy-hamkorlikni takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarining xorijiy davlat sudlari bilan bevosita muloqotini ta‘minlash, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishni taklif qiladi.

Muallif O‘zbekiston Respublikasi sudlariga 2024-yil holatiga ko‘ra xorijiy davlat sud qaror (hukm)larini tan olish va ijro etish yuzasidan xususan, jinoyat ishlari bo‘yicha 52 ta, fuqarolik ishlari bo‘yicha 85 ta va iqtisodiy ishlar bo‘yicha 29 ta iltimosnomalar kelib tushganligini hamda ushbu sohada uchrayotgan muammolarni hal qilishda xalqaro shartnomalarda belgilangan normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, sud amaliyotini birxillashtirish va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish kabi amaliy takliflarni ilgari suradi.

XULOSA

Xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik qilish masalalarini o‘rganish va tahlil qilishga bag‘ishlangan mazkur ilmiy tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha quyidagi ilmiy – nazariy xulosalar, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Davlatlararo xalqaro-huquqiy hamkorlik doirasida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha turli xil fikrlar bildirilgan bo‘lsada, lekin xalqaro hujjatlarda yagona ta‘rif berilmagan. Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi:

“Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish - qarorni tan oluvchi davlat milliy sudlarining qonuniy kuchga kirgan qarorlari kabi bir xil yuridik kuch berilishini anglatadi. Bu esa, sud qarorlari chiqarilgan davlatdan tashqarida ham huquqiy oqibatlarga olib kelishini va tegishli tartibda ijro etilishi kerakligini tushuniladi.

Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish – sudning qonuniy kuchga kirgan qarorini tan oluvchi davlatning milliy sudlari tomonidan xuddi shunday turdagi munosabatlar bo‘yicha chiqariladigan qarorlar bilan tenglashtirishini anglatadi.

Xorijiy davlat sud qarorlarini ijro etish – tan oluvchi davlatning milliy sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlar qanday tartibda ijro etilsa, xorijiy davlat sudlarining qarorlari ham shunday tarzda ijro etilishiga roziligini bildiradi”.

2. Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha qarorlar xususiyatiga ko‘ra *ikki turga* bo‘linadi:

sud qarori ijro etilishi talab qilinmasdan tan olinishi – bunday turdagi qarorlar shaxslarning huquqiy holatini belgilash bo‘yicha chiqarilgan qarorlar hisoblanadi.

sud qarori tan olinishi orqali ijro etilishi – bunday turdagi qarorlarni tan olish orqali davlat o‘z hududida xalqaro shartnomalarda belgilangan shartlarga rioya qilgan holda milliy qonunchiligiga muvofiq qaror ijrosi bo‘yicha majburiy

mexanizimni amalga oshirish tushuniladi.

3. Davlatlarning huquq tizimi va qonunchiligidagi tafovutlarni hisobga olgan holda, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro huquqiy-hamkorlikni amalga oshirishda sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlar o'ziga xos belgiga ega bo'lishi lozim, ushbu belgiga quyidagi ta'rif berildi: *nizo bo'yicha sud muhokamasi o'tkazilgandan so'ng qabul qilingan va qonuniy kuchga kirgan sud qarori*.

4. Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro – huquqiy hamkorlikning genezisi quyidagi davrlarga bo'linadi:

Birinchi davr (XVI-XVII asrlar) – davlat suvereniteti tushunchasining paydo bo'lishi va xalqlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni xalqaro huquq orqali tartibga solinishi lozimligi bo'yicha yondashuvlarning paydo bo'lishi.

Ikkinchi davr (XVII asrdan to XX asrning boshlarigacha) – davlatlar o'rtasida xalqaro munosabatlar rivojlanishi natijasida, fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etishga muhtojlik sezila boshlaydi. Natijada davlatlar vujudga kelgan munosabatlarni ikki tomonlama xalqaro shartnomalar orqali tartibga solishni boshlashadi.

Uchinchi davr (XX asr o'rtalaridan hozirgi kungacha) – dunyoda integratsiyalashuv jarayonlarining boshlanishi va davlatlar o'z fuqarolarining huquqlarini himoya qilish maqsadida ko'p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnomalar imzolashadi. Ushbu jarayonlar bevosita, davlatlarning milliy sud-huquq tizimini modernizatsiya qilishga hamda xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka joriy etilishiga olib keldi. Bu orqali esa davlatlar o'z milliy qonunchiligida xorijiy davlat sudlarning qarorlarini tan olish va ijro etish tartibini yaratdi.

5. Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha davlatlararo hamkorlikni amalga oshirish bo'yicha prinsiplarni quyidagicha tasniflash mumkin:

a) *ixtiyoriylik (o'zarolik prinsipi)* – o'zarolik prinsipi xalqaro xushmuomalalik doktrinasiga asoslanib, bir davlatda tan olingan huquqlarning boshqa davlatda ham tan olinishini nazarda tutadi. Bu prinsip anglo-sakson huquqida sud amaliyot orqali, roman-german huquqida esa yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

b) *imperativ (davlatlarning suveren tengligi prinsipi va davlatlarning xalqaro hamkorligi prinsipi)* - inson huquqlarini himoya qilish har bir davlatning vazifasi hisoblanganligi sababli, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishda tan oluvchi davlat o'z hududiy ustunligidan voz kechmagan holda, xalqaro hamkorlik prinsipidan kelib chiqib, xorijiy davlat sud qarorlarini ixtiyoriy ravishda tan olish va ijro etish amaliyotini yo'lga qo'ydi.

c) *sohaviy (sud jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va res judicata)* - bir davlat sudi tomonidan chiqarilgan qarorlarning boshqa davlat sudi tomonidan tan olish jarayoni qarorda belgilangan normalarning ijro etilishini amalga oshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishda, davlatlar xalqaro standartlarga rioya qilgan holda, bir-birlarining sud organlari tomonidan chiqarilgan qarorlarning aniqligi, ishonchligi va yakuniyligini ta'minlaydi.

6. Universal mintaqaviy shartnomalar Minsk va Kishinev konvensiyalari hamda Kiyev bitimida fuqarolik, iqtisodiy va jinoyat ishlari xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha normalarni o'zida aks ettirgan bo'lsa-da,

ammo ushbu shartnomalar o'z xususiyatiga ko'ra farqlanadi.

*Birinchi*dan, ushbu xalqaro shartnomalar tabiatiga ko'ra yopiq turdagi shartnomalar hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, Kiyev bitimi faqat MDHga a'zo davlatlari o'rtasida xo'jalik nizolari bo'yicha chiqarilgan sud qarorlarini o'zaro tan olish va ijro etish tartibini belgilaydi. Ushbu bitim xo'jalik nizolari bo'yicha xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishda maxsus normalarni (lex specialis derogat legi generali) o'z ichiga oladi.

*Uchinchi*dan, Minsk va Kishinev konvensiyalarida xorijiy davlat sud qarorlarini xususiyatiga ko'ra, *sud qarori ijro etishni talab qilmasdan tan olish va sud qarori tan olish orqali ijro etish* kabi turlarga ajratilganligi to'g'risidagi normalarni belgilab berdi. "*Res judicata*" qoidasidan kelib chiqqan holda, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish jarayonida, tan oluvchi davlat qarorni mohiyatiga ko'ra emas balki, xalqaro shartnomada belgilangan normalar rioya etilganligini tekshirishi kerakligi to'g'risidagi normalar belgilandi.

*To'rtinchi*dan, Kishinev konvensiyasida Minsk konvensiyasidan farqli o'laroq, "*fuqarolik ishlari*" tushunchasi iqtisodiy nizolarni hal etish bilan bog'liq ishlarni ham qamrab olishi to'g'risidagi normalar belgilandi.

II. Xalqaro huquq sohasini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar:

1. BMTning "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risida"gi, "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi to'g'risida"gi va "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiyalarida hamda davlatlarning ikki tomonlama huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarida xorijiy davlat sudi tomonidan chiqarilgan qarorlar, agar davlat suvereniteti, xavfsizligi va jamoat tartibiga zid kelgan hollarda ijro etuvchi davlat sudlari yoki vakolatli organlari tomonidan milliy qonunchiligidan kelib chiqqan holda rad qilish to'g'risida qaror chiqarishi mumkinligi belgilangan. Ammo, transmilliy jinoyatlarni sodir etishda tarixiy yoki madaniy meros bilan bog'liq bo'lgan obyektlardan jinoyat quroli sifatida foydalanish ehtimoli hisobga olinmagan (*Ozarbayjon Respublikasi tajribasi*). Har bir davlat hududida qadimiy tarixiy meros obyektlari mavjudligini hisobga olib, yuqorida qayd etilgan konvensiyalar doirasida belgilangan rad qilish asoslari davlatlarning manfaatlarini himoya qilishga to'liq javob bermaydi. Shu sababli, mazkur konvensiyalar doirasida rad qilish asoslarini, "*tarixiy va madaniy merosiga zarar yetkazishi mumkin deb hisoblanadigan hollarda*" degan normalar bilan to'ldirish taklif etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda:

1) BMTning "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiyaning 7-modda 15-bandi "b" kichik bandiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi:

"agar so'ralayotgan Tomon mazkur iltimosni bajarish o'zining suverenitetiga, xavfsizligiga, jamoat tartibi, tarixiy va madaniy merosiga yoki boshqa muhim manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin deb hisoblasa."

2) "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi" kurash to'g'risidagi konvensiyaning 18-modda 21-bandi "b" kichik bandiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi:

“agar so‘ralayotgan ishtirokchi davlat iltimosni bajarish uning suverenitetiga, xavfsizligiga, jamoat tartibi, tarixiy va madaniy merosiga yoki boshqa hayotiy muhim manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin deb hisoblasa”

3) “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyaning 46-modda 21-bandi “b” kichik bandiga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etiladi:

“agar so‘ralayotgan ishtirokchi davlat iltimosni bajarish uning suverenitetiga, xavfsizligiga, jamoat tartibi, tarixiy va madaniy merosiga yoki boshqa hayotiy muhim manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin deb hisoblasa”

2. BMTning transmilliy jinoyatlarga qarshi kurash konvensiyalarida ishtirokchi davlatlar o‘rtasida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish jinoyatchilikka qarshi kurashning mexanizmi sifatida belgilab qo‘yildi. Ushbu konvensiyalarda belgilangan normalarni bir xilda qo‘llash va ishtirokchi davlatlarning milliy qonunchiligidagi farqli jihatlarni e‘tiborga olgan holda, hamda huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha BMTning mahkumlarni topshirish, ekstraditsiya, jinoiy odil sudlov sohalarida namunaviy shartnomalari bo‘lgani kabi, *“Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha BMTning namunaviy shartnomasi”ni qabul qilish taklif qilinadi.* Bunday shartnomaning qabul qilinishi xorijiy davlat sudlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni tan olish va ijro etish bo‘yicha davlatlararo huquqiy-hamkorlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan *“Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha BMTning namunaviy shartnomasi”*da mazkur masalani tartibga solishda davlatlarning suveren tengligi prinsipi va davlatlarning xalqaro hamkorligi prinsipi, o‘zarolik prinsipi, sud jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi va res judicata prinsiplarining asosida tartibga solinishi tavsiya etiladi. Ushbu prinsiplar sohada davlatlar o‘rtasida xalqaro-huquqiy munosabatlarni mustahkamlash va samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

3. “Bolalarni boshqa mamlakatlarga o‘g‘irlab olib ketishning fuqarolik jihatlari to‘g‘risida”gi Gaaga konvensiyasi universal xalqaro shartnoma ekanligi va undagi ishtirokchi davlatlar bugungi kunda Minsk va Kishinev konvensiyalariga a‘zo ekanligini e‘tiborga olgan holda, bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xorijiy davlat sud qaror tan olish va ijro etishning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha normalarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Minsk konvensiyasining 51-modda 2-qismi: *“Mazkur konvensiyaning 53-moddasi 2 va 3 bandalarida nazarda tutilgan normalar, noqonuniy olib ketilgan yoki ushlab turilgan bolalarni o‘z vatanlariga qaytarish bo‘yicha qarorlari tan olish va ijro etishga nisbatan qo‘llanilmaydi”.*

Kishinev konvensiyasining 54-modda 3-bandi: *“Mazkur konvensiyaning 56-moddasi 2 va 3 bandalarida nazarda tutilgan normalar, noqonuniy olib ketilgan yoki ushlab turilgan bolalarni o‘z vatanlariga qaytarish bo‘yicha qarorlari tan olish va ijro etishga nisbatan qo‘llanilmaydi”.*

4. Ishtirokchi davlatlarning vakolatli sudlari tomonidan chiqarilgan sud qarorlarini tan olish va ijro etish qayd etib o‘tilgan bo‘lsada, uni amalga oshirish mexanizmi sifatida telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish bo‘yicha normalar mavjud emas. Kishinev konvensiyasining 6-moddasi 3-qismi bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq:

Ahdlashuvchi Tomonlar o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha protsessual va boshqa harakatlarni bajarish to'g'risidagi hujjatlarni axborot texnologiyalari vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Ahdlashuvchi Tomonlar telekommunikatsiya vositalaridan foydalanishda maxfiylik darajasiga oid bo'lgan qoidalarni qo'shimcha tarzda belgilaydilar.

5. Xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha xalqaro hujjatlar (Minsk va Kishinev konvensiyalari) bugungi kun talablariga to'liq muvofiq kelmaydi. Mazkur xalqaro hujjatlarda belgilangan normalar bir-birini takrorlovchi xususiyatga ega va sud qarorlarini tan olish va ijro etilishi bo'yicha davlatlararo yuborilgan so'rovlarning bajarishda muddatlar belgilanmagan. O'z navbatida, ushbu xalqaro hujjatlarning yopiq turdagi shartnomalar ekanligini hisobga olgan holda:

O'zbekiston Respublikasi 2019-yilning 2-iyulda "Fuqarolik va tijorat ishlari bo'yicha chiqarilgan xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasiga qo'shilishi lozim. Bu orqali mamlakatimizda sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchning ortishi bilan bir qatorda, davlatlararo hamkorlik kengayishiga, hamda xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha sodda va samarali tizimning yaratilishiga, shuningdek, xalqaro shartnomalardagi normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishiga xizmat qiladi.

6. Xorijiy davlatlar sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan imzolagan xalqaro shartnomalarida jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy yo'nalishlar doirasida belgilangan normalarning o'ziga xosligiga ko'ra:

Birinchidan, xorijiy davlat hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish jarayonida, hukmni tan oluvchi davlat sudlari, milliy qonunchilik talablarini inobatga olgan holda, hukmda belgilangan jazoga mutanosib tarzda jazo muddatini qayta belgilaydi.

Ikkinchidan, mahkum tomonidan yoki uning qonuniy vakili tomonidan ariza taqdim qilinishidan tashqari, hukmni tan olish va ijro etish bo'yicha ishtirokchi davlatlarning vakolatli organlarining yozma arizasi bo'lishi lozim. Shuningdek, "jazoni o'z yurtida o'tash" (*repatriatsiya*) prinsipiga muvofiq, hukmni tan oluvchi va ijro etuvchi davlat sudi, o'z fuqarosiga nisbatan tayinlangan jazoning qolgan qismini o'z mamlakatida o'tashi uchun hukm chiqaruvchi davlatga iltimosnoma yuborishi mumkin.

Uchinchidan, hukmni tan oluvchi va ijro etuvchi davlat, insonparvarlik prinsipiga asosan mahkumga nisbatan afv yoki amnistiya qo'llash huquqiga ega (*hukm qilingan shaxslarni jazoni o'z yurtida o'tash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Ozarbayjon bilan tuzilgan shartnomasi 14-moddasi, Qozog'iston bilan tuzilgan shartnomasi 14-moddasi, Ukraina bilan tuzilgan shartnomasi 13-modda va Gruziya bilan tuzilgan shartnomasi 12-modda*).

To'rtinchidan, jinoyat ishlari bo'yicha hukmlarni tan olish va ijro etish fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha qoidalardan farqli ravishda taraflar (mahkum)ning ishtirokisiz amalga oshiriladi.

Beshinchidan, xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo'yicha mintaqaviy (Kiyev bitimi, Minsk va Kishinev konvensiyalari) va ikki tomonlama shartnomalarning BMTning universal shartnomalaridan farqli jihati sifatida mazkur jarayonni tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga oladi.

Oltinchidan, davlatlararo huquqiy yordam va munosabatlar bo'yicha tuzilgan

shartnomalarda belgilangan normalarga muvofiq, ishtirokchi davlatlarning jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tomonidan chiqarilgan hukmning xususiyatidan kelib chiqib, fuqarolik-huquqiy qismi bo'yicha yetkazilgan zararlarni tan olish va ijro etish ham amalga oshiriladi.

Yettinchidan, sud qarorlariga berilgan ta'riflar xilma-xilligi sababli, xalqaro shartnomalar doirasida qaysi yo'nalish (fuqarolik va iqtisodiy)da hamkorlikni amalga oshirishdan qat'iy nazar, ishtirokchi davlatlarning sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etishning asosiy belgisi sifatida, nizo bo'yicha, qaror davlatning oliy hokimiyati nomidan chiqarilganligi va odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha protsessual normalarga rioya qilinganligiga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Yuqoridagilarga ko'ra, xalqaro shartnomalarda belgilangan o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olib: *"Xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etishda Ahdlashuvchi davlatlarning vakolatli organlari o'rtasida axborotlar almashuvuvi bo'yicha yagona elektron tizim yaratish zarur"*ligi taklif etiladi.

III. Milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan normalarga muvofiq, xorijiy davlat jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan olish va ijro etish to'rt boshqichni qamrab oladi:

Birinchi bosqich – mahkum yoki uning qonuniy vakili arizasi bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga murojaat qiladi.

Ikkinchi bosqich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy davlat vakolatli organiga arizada ko'rsatilgan masala va unga tegishli bo'lgan hujjatlarni taqdim qilish bo'yicha so'rov yuboradi.

Uchinchi bosqich – yuborilgan so'rov xorijiy davlat vakolatli organi tomonidan qanoatlantirilgandan so'ng, Bosh prokuror yoki uning o'rinbosari tomonidan, mahkumning yashash joyi bo'yicha jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga (birinchi instansiya) iltimosnoma kiritiladi.

To'rtinchi bosqich – iltimosnomani sud tomonidan ko'rib chiqish jarayonida, hukmda tayinlangan jazo qismining milliy qonunchilik normalariga mutanosibligini, xalqaro shartnomalarda belgilangan shartlarga rioya etilganligini tekshiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi hisoblanadigan xalqaro shartnomalarda, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar: jarima, jinoiy yo'l bilan olingan daromad yoki mol-mulkni musodara yuzasidan xorijiy davlat jinoyat sudi tomonidan chiqarilgan hukmlarini tan olish va ijro etish bo'yicha normalar milliy qonunchilikka implementatsiya qilinmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim:

610-moddani quyidagi mazmundagi 5-band bilan to'ldirish va 6-bandni quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

"5) xorijiy davlat sudi tomonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlangan bo'lsa yoki jinoiy yo'l bilan olingan daromad yoki mol-mulkni musodara qilish belgilangan bo'lsa;

6) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan boshqa hollarda."

613-moddani quyidagi mazmundagi 6-qism bilan to'ldirish:

“jinoiy yo'l bilan olingan daromad yoki mol-mulkni musodara bo'yicha hukmni tan olish va ijro etish bilan bog'liq bo'lgan hollarda, mulk joylashgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.”

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida, tan olish orqali ijro etish xususiyatiga ega bo'lmagan xorijiy davlat jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan olishga oid bo'lgan normalar belgilanmagan. Xususan, har bir davlatda jinoyat sodir etgan shaxsning ma'lumotlari yuritilishidan kelib chiqib, shaxsga nisbatan jazo tayinlash vaqtida, xorijiy davlat sudining hukmi asosida olingan ma'lumotlar javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi mumkin. O'z navbatida, Minsk konvensiyasining 76¹-moddasi va Kishinev konvensiyasining 99-moddasida belgilangan normalarning milliy qonunchilikka implementatsiyasini amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, Jinoyat-protsessual kodeksi 610¹-moddasiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim:

610¹-modda. Xorijiy davlat sudlari tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan olish va hisobga olish.

1. Shaxsga jazo tayinlash jarayonida, uning ilgari sodir etgan jinoyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan qoidalarga muvofiq xorijiy davlat sudi tomonidan chiqarilgan hukmlar tan olinadi va hisobga olinadi, agar ushbu qoidaga nisbatan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa.

2. Xorijiy davlat sudi tomonidan chiqarilgan hukmlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun, sud, prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan yuborilgan so'rovning haqiqiylikni aniqlash imkonini beruvchi himoyalangan telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda, elektron aloqa vositalari orqali, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa tegishli xorijiy davlatning vakolatli organiga so'rov yuboradi.

3. O'zbekiston Respublikasi hududida qadimiy tarixiy meros obyektlari mavjudligini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 615-moddasi 2-qismi 3-bandiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim:

“3) xorijiy davlat sudining qarorini tan olish va ijroga qaratish O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga, suverenitetiga yoki xavfsizligiga yoxud milliy, tarixiy va madaniy merosiga zarar yetkazishi mumkinligi haqida xulosaga kelsa, xorijiy davlat sudining qarorini tan olishni va ijroga qaratishni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi.”

4. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha xorijiy davlat sudlari qarorlarini tan olish orqali ijro etish xususiyatiga ega bo'lgan qaror (hal qiluv)larni tan olish va ijro etish xalqaro shartnomalarga muvofiq vakolatli sudga iltimosnoma bilan murojaat qilganidan so'ng, umumiy tartibda (sud muhokamasi o'tkazish) amalga oshiriladi. Bunday turdagi sud qarorlari O'zbekiston Respublikasida tan olish va ijro etish maxsus tartib-tamoillarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. *Birinchi*dan - da'vogar tomonidan javobgarning yashash manzili joylashgan joydagi vakolatli sudga iltimosnoma bilan murojaat qiladi (fuqarolik

ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari (birinchi instansiya), iqtisodiy ishlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari (ikkinchi instansiya)). *Ikkinchidan* - fuqarolik va iqtisodiy ishlari bo'yicha xorijiy davlat sudi tomonidan chiqarilgan qarorni tan olish va ijro etishda da'vogar tomonidan berilgan iltimosnoma vakolatli sud tomonidan xalqaro shartnomada belgilangan normalarga rioya etilganligini tekshiradi. *Uchinchidan* - xalqaro shartnomda belgilangan normalarga rioya etilganda O'zbekiston Respublikasining vakolatli sudi tomonidan xorijiy davlat sudi qarorini tan olish va ijro etish bo'yicha ajrim (ekzekvatura) chiqariladi. *To'rtinchidan* - taqdim qilingan iltimosnoma va unga ilova qilingan asoslar, agar davlat suvereniteti, xavfsizligi, jamoat tartibi yoki xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikda belgilangan protsessual asoslarga zid kelgan hollarda xorijiy davlat sudi qarorlarini tan olish va rad etish belgilangan.

5. O'zbekiston Respublikasi bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan Gaaga konvensiyasi ishtirokchisi ekanligi hamda Minsk konvensiyasining 52-modda va Kishinev konvensiyasining 55-moddasi belgilangan normalarning milliy qonunchilikka implementatsiyasini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim:

364¹-modda. Ijro etish talab qilinmaydigan chet davlat sudlari qarorlarini tan olish.

O'zbekiston Respublikasida chet el sudlarining o'z xususiyatiga ko'ra ijro etishni talab qilmaydigan quyidagi qarorlari tan olinadi:

- 1) Qarorni chiqargan davlat fuqarolarining huquqiy maqomiga taalluqli bo'lsa;
- 2) agar nikohdan ajratish vaqtida er-xotinning biri O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohni bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi;
- 3) agar nikohdan ajratish vaqtida er-xotinning ikkalasi ham O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasidagi nikohni bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi.

364²-modda. Noqonuniy olib ketilgan yoki ushlab turilgan bolalarni qaytarish bo'yicha chet davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish.

Chet davlat sudlarining noqonuniy olib ketilgan yoki ushlab turilgan bolalarni o'z vatanlariga qaytarish bo'yicha qarorlari tan olish va ijroga qaratish O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalari hamda qonunchiligida nazarda tutilgan bo'lsa, bunday hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik sudlari tomonidan tan olinadi va ijro etishga qaratiladi.

Noqonuniy olib ketilgan yoki ushlab turilgan bolalarni vataniga qaytarish bo'yicha xorijiy davlat sudlarining qarorlari O'zbekiston Respublikasida maxsus tartib-tamoillarni talab qilinmasdan quyidagi shartlar asosida tan olinadi va ijro etiladi:

- a) Qaror qonuniy kuchga kirgan bo'lishi;
- b) Qaror O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi, ommaviy tartib va bola manfaatlariga zid bo'lmasligi.

Sud ariza kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda ishni ko'rib chiqishi shart.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING OF THE SCIENTIFIC
DEGREES No. DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 AT TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

HALIKULOV KOMOLIDDIN NOSIROVICH

**INTERNATIONAL LEGAL COOPERATION IN THE RECOGNITION
AND ENFORCEMENT OF JUDICIAL DECISIONS OF FOREIGN
STATES**

12.00.10 – International law

ABSTRACT

of the dissertation of the Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

Tashkent – 2025

The theme of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under number No. B2024.3.PhD/Yu1583.

The dissertation is prepared at Tashkent State University of Law

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian, (summary)) on the website of the Scientific Council (www.tsul.uz) and Information educational portal "ZiyoNET" (www.ziynet.uz)

Scientific supervisor: **Sulaymanov Odiljon Rabbimovich**
Doctor of Law, Associate Professor

Official opponents: **Gafurova Nozimakhon Eldarovna**
Doctor of Law, Associate Professor

Khakimov Ravshan Tulkunovich
Doctor of Law, Associate Professor

The leading organization: **The Academy of Justice of the Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will be held on September 29, 2025 year at 11:00 am at the Session of the Scientific Council DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 at Tashkent State University of Law (Address: 100047, Sayilgokh street, 35. Tashkent city. Phone: +998 71 233-66-36, Fax: +998 71 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz)

The doctoral dissertation is available at the Information Resource Center of Tashkent State university of Law (registered as no 1424). (Address: 100047, Amir Temur street 13. Tashkent city. Phone +998 71 71-233-66-36

The abstract of the dissertation is distributed on September 15, 2025

(Registry protocol No. 11 on September 15, 2025)



S.S. Gulyamov
Chairman of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

Sh.N. Rakhmanov
Secretary of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Associate professor

D.N. Makhkamov
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

INTRODUCTION (Abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Law)

Relevance and demand for the research topic. In today's world, as a result of the deepening processes of globalization, interstate relations concerning the recognition and enforcement of foreign court judgments are becoming increasingly important year by year. In particular, the 7th action of the “Pact for the Future” adopted by the UN General Assembly Resolution on September 24, 2024, states: “We will strengthen our efforts to build peaceful, just, and inclusive societies for sustainable development, provide access to justice for all, and build effective, accountable, and inclusive institutions at all levels, and uphold protect human rights and fundamental freedoms.”¹ This is also caused by a number of problems, such as the weakness of legal mechanisms for the recognition and enforcement of decisions made by criminal, civil, and economic courts of different states, as well as the diversity of national legal systems of states. This requires the improvement of international treaties on the recognition and enforcement of foreign court judgments, the strengthening of international legal cooperation, and the acceleration of the implementation processes into the national legislation of states.

Globally, special attention is being paid to scholarly research focused on improving international legal treaties on the recognition and enforcement of foreign court judgments, studying the causes of problems related to disparities in the national legal systems of different countries, and increasing the effectiveness of mechanisms regulating this field. In particular, certain results have been achieved in reconsidering the factors contributing to interstate problems in recognizing and enforcing foreign court judgments and in further improving international legal mechanisms based on the experience of advanced foreign countries. Nevertheless, a range of issues in interstate relations concerning the recognition and enforcement of foreign court judgments—such as the norms recorded in international treaties not meeting the demands of the present day, the lack of sufficient mutual trust in relations between states, and differences in the national legislation of states—necessitates a comprehensive study of theoretical, practical, and legal matters, the identification of existing problems in the system, and the development of solutions for them.

In order to effectively implement relations in the field of recognition and enforcement of foreign court judgments in our country, the Republic of Uzbekistan has ratified a number of international documents. This has served to implement international legal-cooperation in the recognition and enforcement of judgments made by the criminal, civil, and economic courts of foreign states, to uniformly apply the norms established in international treaties, and to strengthen the legal protection mechanism of court judgments. In the words of the President of the Republic of Uzbekistan, Sh.M. Mirziyoyev: “The main task of the courts is to establish justice. To do this, the court must issue a lawful, well-founded, and just decision in every

¹ Resolution A/RES/79/1 adopted by the General Assembly on 22 September 2024 The Pact for the Future // [Elektron resurs]: <https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n24/272/22/pdf/n2427222.pdf>

case.”² Furthermore, proceeding from the tasks set forth in the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. RP-4895 of 17 November 2020, “On measures for the implementation of the provisions of the Convention on Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Matters of 22 January 1993 and 7 October 2002”, necessitate the study of issues related to implementing the norms from international legal cooperation agreements on the recognition and enforcement of foreign court judgments into national legislation. This should be done taking into account the characteristics of universal, regional, and bilateral international treaties regulating state cooperation, the foundations for regulating state cooperation, and their specific features.

This dissertation research serves to implement the tasks defined in the United Nations Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances of 20 December, 1988; the United Nations Convention against Transnational Organized Crime of 15 November, 2000; as well as the Criminal Procedure Code, the Civil Procedure Code, and the Economic Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. Furthermore, it contributes to the implementation of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP-60 of 28 January, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”; the Resolution No. RP-4895 of 17 November, 2020, “On measures for the implementation of the provisions of the Convention on Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Matters of 22 January 1993 and 7 October 2002” and other normative-legal acts related to the field.

The dependence of the research on the priority areas of development of science and technologies in the country. Dissertation research was carried out in accordance with the priority direction of the republic’s science and technology development I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual-educational development of the information-oriented society and the democratic state”.

